

## ART PEDAGOGIKASI ASOSIDA MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada art pedagogikasi asosida ta'lim va tarbiya berish jarayonida tarbiyalanuvchilar ham ijodiy jihatdan ham intellektual jihatdan rivojlantirib, rivojlanish sohasi bo'yicha kompetensiyalarini boyitib bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ART pedagogikasi, tasviriy san'at, ijodkorlik, san'at, mahorat, chizma, shakl, rang, tasvir, tafakkur, mezon, ijodkorlik omili, ijodkorlik parametrlari, innovatsiya, intellekt, kompetensiya.

### РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ ГРУППЫ ДОШКОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ

**Аннотация.** В данной статье в процессе воспитания и обучения на основе художественной педагогики происходит развитие учащихся как творчески, так и интеллектуально, обеспечивается всестороннее развитие ребенка путем обогащения его компетенций в области развития.

**Ключевые слова:** арт-педагогика, изобразительное искусство, творчество, искусство, умение, рисунок, форма, цвет, образ, мышление, критерии, фактор креативности, параметры креативности, новаторство, интеллект, компетентность.

### DEVELOPING THE COMPETENCE OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON ARTISTIC PEDAGOGY

**Annotation.** In this article, in the process of education and training based on artistic pedagogy, students develop both creatively and intellectually, and the child's comprehensive development is ensured by enriching his or her developmental competencies.

**Keywords:** art pedagogy, fine art, creativity, art, skill, drawing, form, color, image, thinking, criteria, creativity factor, creativity parameters, innovation, intelligence, competence.

Art pedagogikasi natijasida bolalar ijodiy rivojlanadi va bilish faoliyati shakllana boshlaydi. Natijasida bolalik davrida bilish jarayonlari yosh davriga mos ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yilgan davlat talablari asosida quyidagicha rivojlanadi:

1. İlk yosh davrida bola psixikasi to'liq rivojlanmaganligi uchun ham vaqt va fazo kabi tushunchalarni to'g'ri idrok eta olmaydilar. Bola atrof muhitni isloh qilishi, asta – sekin kundalik hayot davomida bu kabi murakkab tushunchalarni idrok eta boshlaydi. Dunyoni tadqiq qilayotgan bir yoshli bola narsa va hodisalarga nisbatan diqqati beqaror va ixtiyorsiz bo'ladi. Lekin ilk yoshdagi bolaning atrofdan turli axborotlarni qabul qilishi, o'ynashi, narsa va buyumlarni isloh qilishi natijasida sodda tafakkur qila boshlaydi. Diqqati barqarorlashadi. Diqqati barqarorlashgani ma'lum bir predmetni uzoq muddat o'ynashida namoyon bo'ladi. Ikki yoshga yetgach narsa va hodisalarni tadqiq qilish jarayonida predmetlarni paypaslab o'ynaydi, ta'mini ko'radi, lekin muayyan predmet xususiyatlarini to'liq eta olmaydi.

2. Bola uch yoshga yetgach narsa va hodisalarning xususiyatlarini idrok eta boshlaydilar. Ularning mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishi tobora kuchayadi. Yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi uning harakatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bola o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishi uchun ma'lum bir predmetni buzishi, sindirishi, qismlarga ajratishi mumkin. Bu

xatti - harakatlar bola tafakkuri rivojlanishining keyingi bosqichiga o'tadi. Dastlabki go'zalikka bo'lgan intilish shu davrda vujudga keladi. Bola anglamagan holda estetik jihatdan o'zini-o'zi tarbiyalay boshlaydi.

3. 5-6 yoshda bolalarda tadqiqotchilik faollashadi. Ular endi narsa va hodisalarni idrok etgan holda tadqiq qilish uchun tanlab olishadi. Ushbu davrda bolalar tadqiq qilish uchun ma'lum bir muammolarni mustaqil tarzda shakllantirish, o'zi javob topishga harakat qiladi. Predmetning kichik qismlariga ham alohida yondashib, keng ma'noda uning xususiyatlarini tadqiq qiladi [95].

Maktabga tayyorov guruhida, ya'ni 6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolada mustaqil tafakkur qilgan holda dizayn yarata olish ko'nikmasi vujudga kelgan bo'ladi. [90].

Mualliflik yondashuvi asosida ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirish tushunchasining pedagogik mazmunini quyidagicha tasnif etishni lozim topdik:

ART pedagogika → tarbiyachi → tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari → o'z-o'zini anglash → ijodiy faoliyat → ijodkorlik va ijodiy fikrlash, yasash, yaratish, bo'yash, chizish, qurish → faol ijodiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirish → ijodiy tasavvur va fikrlash → badiiy ijodiy faoliyat → ijodkorlik va badiiy mahorat darajasini rivojlantirish → tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchisida ijodkorlikni rivojlantirishdagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashni, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi.

Bizning fikrimizcha, ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan konsepsiyada quyidagi beshta asosiy negiz ustuvor o'rin egallaydi:

- maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirishda xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analarini, ma'naviy merosiga tayanish;
- bolalarni ijodkorlikka undashda ularning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlarini e'tiborga olish;
- ularda san'atni sevish, undan ilhomlanish, zavq olishga yo'naltirilgan ijodiy mashq va topshiriqlar bankini yaratish;
- maktabga tayyorlov guruhi bolalarining badiiy faoliyatini mediata'lim vositasi asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- ART pedagogikasi vositasi asosida tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan tabiiyatga sayohat va turli ekskursiyalarni tashkil etish;

Tadqiqotlarimiz davomida biz, ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalarida ijodkorlikni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tahlil qilib chiqdik. Bu murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim menejmentida olg'a surilgan ilg'or innovatsion g'oyalarga tayangan holda ish ko'rish talab etiladi. Ushbu jarayonda oila, ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etishlari talab etiladi. Bu, albatta, birinchi navbatda, ta'lim jarayonidagi obektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalarini tanlab olinishini taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi o'quv tarbiya jarayonida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
- tanqidiy fikrlash texnologiyasi
- dizayn texnologiyasi
- muammoli ta'lim texnologiyasi
- o'yin texnologiyasi
- ijodiy ish texnologiyasi
- ijodiy ustaxonalar texnologiyasi;
- badiiy pedagogika vositalaridan foydalanish texnologiyasi;
- ART pedagogikasi vositalaridan foydalanish texnologiyasi kabilardan samarali foydalanish intensiv ravishda yo'lga qo'yilmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning eshitish xotirasidan ko'ra ko'z, tasavvur xotirasi kuchli bo'ladi. Shuni inobatga olib mashg'ulotlar o'yin, ko'rgazmali qurollar, multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa, har bir bolada o'rganishdagi rag'batning amaliy natijasi his etilib, axloqiy fazilatlarini rivojlanadi, halollik, adolatlilik, qat'iyatlilik, erkin fikrlash, nutqining o'sishi va eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi.

Didaktik o'yinlarga izoh beradigan bo'lsak, bolalar bilan maxsus ta'limiy o'yinlar shaklida mashq qilish usulida bolaning bilim doirasini rivojlantirishdir. Didaktik o'yinlar ham o'yin, ham ta'lim vositasi. Bunday o'yin jarayonida bola barcha aqliy jarayonlarni rivojlantiradi va individual xususiyatlarini shakllantiradi.

Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonini rivojlantirish bugun jahonda e'tirof etilayotgan eng samarali yo'llardan biri. Multimedia-zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanish. U interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audio samara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi.

Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borishning yana bir afzalligi, bu kabi tashkil etilgan mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi. Bola bilimni ixtiyoriy qabul qiladi va bu orqali tarbiyachi ijobiy natijaga erishadi.

Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanish bolaning maktabga ishonch va kelajakka oshiqish bilan qadam tashlashiga yordam beradi. Yillar elagidan o'tib kelayotgan oltin naql bugun ham qiymatini oshirsa oshirganki, zarracha kamaytirmagan. Chindan ham yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi bebahodir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqotlarimiz davomida biz, ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalarida ijodkorlikni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tahlil qilib chiqdik. Bu murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim menejmentida olg'a surilgan ilg'or innovatsion g'oyalarga tayangan holda ish ko'rish talab etiladi. Ushbu jarayonda oila, ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etishlari talab etiladi. Bu, albatta, birinchi navbatda, ta'lim jarayonidagi obektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalarini tanlab olinishini taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'RQ-595
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son, 70-modda. 38bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
5. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 09.09.2017 y. PQ-3261-son
6. Abduraimova G.O. boshlang'ich sinflarda STEAM texnologiyasidan foydalanish metodiksi
7. Aldemir J., Kermani H. Integrated STEM curriculum: improving educational outcomes for Head Start children //Early Child Development and Care. – 2017. – T. 187. – №. 11. – C. 1694-1706;
8. An D. A meta-analysis of the effectiveness of STEM-programs in the United States. – Cleveland State University, 2013.
9. Anisimova T., Sabirova F., Shatunova O. Formation of design and research competencies in future teachers in the framework of STEAM education //International Journal of Emerging Technologies in Learning (IJET). – 2020. – T. 15. – №. 2. – C. 204-217.